

## **Surxondaryo viloyatida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi**

*2025 yil yanvar-mart oylari uchun*

- I. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi
- II. Surxondaryo viloyati qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi hududlar kesimida
- III. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish
- IV. Chorva mollari va parrandalar bosh soni
- V. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

### **I. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi**

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2025 yilning yanvar-mart oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 4 225,4 mlrd. so'mni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar – 4 131,8 mlrd. so'mni, o'rmon xo'jaligi – 78,9 mlrd. so'mni, baliqchilik xo'jaligi – 14,7 mlrd. so'mni tashkil qildi.

### **Surxondaryo viloyatida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmining o'sish sur'ati**



### **II. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi hududlar kesimida**

2025 yilning yanvar-mart oylarida hududlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Denov (624,8 mlrd. so'm), Sherobod (383,4 mlrd. so'm), Qumqo'rg'on (371,6 mlrd. so'm) va Jarqo'rg'on (376,7 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga Qiziriq (99,8 mlrd. so'm) Bandixon tumanlarini (84,7 mlrd. so'm) va Termiz shahrini (13,3 mlrd. so'm) keltirib o'tish mumkin.



	<b>Hajm mlrd. so'm</b>	<b>O'sish sur'ati % da</b>
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>4 225,4</b>	<b>103,7</b>
Termiz shahri	13,3	103,7
Oltinsoy tumani	130,7	138,3
Angor tumani	337,8	105,2
Bandixon tumani	84,7	105,1
Boysun tumani	284,1	101,6
Muzrabot tumani	275,1	103,5
Denov tumani	624,8	105,3
Jarqo'rg'on tumani	376,7	102,0
Qumqo'rg'on tumani	371,6	102,7
Qiziriq tumani	99,8	101,8
Sariosiyo tumani	372,6	102,3
Termiz tumani	252,2	100,7
Uzun tumani	360,3	103,8
Sherobod tumani	383,4	100,3
Sho'rchi tumani	258,3	101,5

Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati tahlil qilinganda, yuqori o'sish sur'atlari Oltinsoy (138,3 %), Angor (105,2 %), Bandixon (105,1 %) va Uzun (103,8 %) tumanlarida qayd etildi.

Boshqa hududlarga nisbatan Muzrabot (103,5 %), Qumqo'rg'on (102,7 %), Sariosiyo (102,3 %), Jarqo'rg'on (102,0 %), Qiziriq (101,8 %), Boysun (101,6 %), Sho'rchi (101,5 %), Termiz (100,7 %) va Sherobod (100,3 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

### **III. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish**

2025 yilning yanvar-mart oylarida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 4 061,0 mlrd. so'mni yoki 2024 yilning mos davriga nisbatan 103,5 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari 616,6 mlrd. so'mni (104,6 %), chorvachilik mahsulotlari 3 444,4 mlrd. so'mni (103,3 %) tashkil qildi.

Hududlar kesimida qishloq xo'jaligi mahsulotlarining eng yuqori hajmi Denov (606,5 mlrd. so'm), Jarqo'rg'on (371,7 mlrd. so'm), Qumqo'rg'on (368,8 mlrd. so'm) va Sherobod (366,7 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga Qiziriq (98,7 mlrd. so'm) Bandixon tumanlarini (83,4 mlrd. so'm) va Termiz shahrini (12,9 mlrd. so'm) keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Oltinsoy (135,2 %), Angor va Bandixon (104,9 %) hamda Denov (104,5 %) tumanlarida qayd etildi. Termiz (101,0 %), Sherobod va Sho'rchi (101,2 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

### Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 83,7 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 10,1 % i fermer xo'jaliklariga, 6,2 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

### Chorvachilik mahsulotlari yetishtirish

Hududlar kesimida chorvachilik mahsulotlarining eng yuqori hajmi Denov (547,2 mlrd. so'm), Qumqo'rg'on (348,3 mlrd. so'm), Uzun (318,9 mlrd. so'm), Jarqo'rg'on (313,5 mlrd. so'm) va Sherobod (251,1 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga Termiz shahri (9,5 mlrd. so'm), Bandixon (71,3 mlrd. so'm), Oltinsoy (75,6 mlrd. so'm) va Qiziriq tumanlarini (93,3 mlrd. so'm) keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Sherobod (110,9 %), Bandixon (104,7 %), Denov (104,4 %), Angor (103,9 %) va Uzun (103,5 %) tumanlarida qayd etildi. Sho'rchi (100,8 %), Termiz (101,2 %), Boysun (101,3 %), Qiziriq (101,7 %) va Oltinsoy (101,8 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

2025 yilning yanvar-mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 39,3 ming tonna go'sht, 155,5 ming tonna sut, 127,6 mln. dona tuxum, 107 tonna qirqib olingan jun, 1,7 ming dona qorako'l teri yetishtirildi va 550,3 tonna baliq ovlandi.

Hisobot davrida tirik vaznda yetishtirilgan go'sht hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 102,8 % ni, sog'ib olingan sut – 103,7 % ni, olingan tuxum – 109,5 % ni, qirqib olingan jun – 112,6 % ni, olingan qorako'l teri – 100,5 % ni hamda ovlangan baliqlar – 118,7 % ni tashkil qildi.

2025 yil yanvar-mart oylarida yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlari to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yetishtirilgan go'shtning umumiy hajmidan 7,3 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 90,1 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 2,6 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim.

Shunga mos ravishda sog'ib olingan sutning 4,1 % i fermer xo'jaliklari, 94,7 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari, 1,2 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keldi.



**2025 yil yanvar-mart oylarida yetishtirilgan asosiy turdag'i  
chorvachilik mahsulotlari va ovlangan baliqlar**

	<b>Yanvar-mart 2025 y.</b>	<b>O'sish sur'ati % da</b>
<b>Go'sht (tirik vaznda), ming tonna</b>	<b>39,3</b>	<b>102,8</b>
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	2,9	100,7
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	35,4	102,1
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	1,0	153,6
<b>Sut, ming tonna</b>	<b>155,5</b>	<b>103,7</b>
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	6,4	111,3
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	147,3	103,1
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	1,8	144,2
<b>Tuxum, mln. dona</b>	<b>127,6</b>	<b>109,5</b>
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	9,1	117,4
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	56,3	90,0
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	62,2	134,5
<b>Jun, tonna</b>	<b>107</b>	<b>112,6</b>
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	23	164,3
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	51	102,0
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	33	106,5
<b>Qorako'l teri, ming dona</b>	<b>1,7</b>	<b>100,5</b>
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	0,4	96,1
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	1,2	102,0
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	-	-
<b>Baliq, tonna</b>	<b>550,3</b>	<b>118,7</b>
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	292,6	113,7
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	32,0	103,2
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	225,7	128,6

Shu bilan birga, olingen tuxumning 7,1 % i fermer xo'jaliklariga, 44,1 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 48,8 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.



Shuningdek, qirqib olingan junning 21,5 % i fermer xo'jaliklari, 47,7 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari, 3,8 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keldi.

Bundan tashqari, olingan qorako'l terining 25,3 % i fermer xo'jaliklariga, 74,7 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri keldi.

O'z navbatida, ovlangan baliqlarning 53,2 % i fermer xo'jaliklariga, 5,8 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 41,0 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelganligini qayd etish lozim.

### **Hududlar kesimida yetishtirilgan asosiy turdag'i chorvachilik mahsulotlari hajmi**

	<b>Go'sht (tirik vaznda), tonna</b>	<b>Sut, tonna</b>	<b>Tuxum, ming dona</b>
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>39 344</b>	<b>155 530</b>	<b>127 558</b>
Termiz shahri	96,2	442,3	1 099,4
Oltinsoy tumani	1 018,5	2 016,5	1 892,2
Angor tumani	2 900,0	10 013,6	4 062,1
Bandixon tumani	833,1	3 227,5	1 131,5
Boysun tumani	3 301,4	5 830,3	2 936,9
Muzrabot tumani	2 562,9	11 047,8	10 864,3
Denov tumani	6 163,6	25 405,4	23 209,9
Jarqo'rg'on tumani	3 594,6	12 512,0	22 265,4
Qumqo'rg'on tumani	3 688,9	19 278,2	7 794,8
Qiziriq tumani	1 050,3	4 635,4	1 366,2
Sariosiyo tumani	3 220,5	13 509,9	6 774,1
Termiz tumani	2 015,7	7 682,9	25 970,6
Uzun tumani	3 525,0	16 494,4	4 726,8
Sherobod tumani	2 698,6	12 993,7	9 301,5
Sho'rchi tumani	2 674,7	10 440,1	4 162,3

#### **Dehqonchilik mahsulotlarini yetishtirish**

Hududlar kesimida dehqonchilik mahsulotlarining eng yuqori hajmi Sherobod (115,6 mlrd. so'm), Angor (91,4 mlrd. so'm), Sariosiyo (76,1 mlrd. so'm), Denov (59,3 mlrd. so'm) va Jarqo'rg'on (58,2 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega



hududlarga Termiz shahrini (3,4 mlrd. so'm), Qiziriq (5,4 mlrd. so'm) va Boysun tumanlarini (9,8 mlrd. so'm) keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Oltinsoy (2,7 m. ko'p), Uzun (108,0 %), Angor (107,4 %), Sho'rchi (106,7 %) va Muzrabot (106,2 %) tumanlarida qayd etildi. Sherobod (86,6 %), Termiz (100,2 %), Sariosiyo (101,4 %) va Jarqo'rg'on (101,9 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

### **Hududlar kesimida yetishtirilgan sabzavotlar hajmi**

	<b>tonna</b>	<b>o'sish sur'ati, % da</b>
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>24 048</b>	<b>105,2</b>
Termiz shahri	164,4	103,7
Oltinsoy tumani	1 798,8	4,4 m.
Angor tumani	4 344,0	107,7
Bandixon tumani	400,6	108,2
Boysun tumani	430,5	104,4
Muzrabot tumani	1 332,3	108,0
Denov tumani	1 574,9	108,6
Jarqo'rg'on tumani	2 393,6	101,7
Qumqo'rg'on tumani	463,8	105,0
Qiziriq tumani	182,3	101,4
Sariosiyo tumani	3 390,2	101,2
Termiz tumani	2 146,4	99,7
Uzun tumani	312,6	111,8
Sherobod tumani	4 628,0	82,8
Sho'rchi tumani	485,6	110,3

Yetishtirilgan sabzavot umumiyligi eng yuqori ulushi Sherobod (19,2 %) hissasiga to'g'ri keldi. Shu bilan birga, yuqori ulush Angor (18,1 %), Sariosiyo (14,1 %), Jarqo'rg'on (10,0 %), Tyermiz (8,9 %) va Angor (7,5 %) tumanlarida qayd etildi. Past ko'rsatkichlar Termiz shahrida (0,7 %), Qiziriq (0,8 %) va Uzun tumanlarida (1,3 %) kuzatildi.

2024 yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Oltinsoy (4,4 m. ko'p), Uzun (111,8 %), Sho'rchi (110,3 %), Denov (108,6 %), Bandixon (108,2 %), Muzrabot (108,0 %) va Angor tumanlarida (107,7 %) qayd etildi.



#### **IV. Chorva mollari va parrandalar bosh soni**

2025 yilning 1 aprel holatiga barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni 1 064,5 ming boshga yetdi, (2024 yilning 1 aprel holatiga nisbatan 1,9 % ga ko'p), sigirlar 383,5 ming boshga (1,9 % ga ko'p), qo'y va echkilar 2 625,9 ming boshga (2,0 % ga ko'p), parrandalar 5 493,5 ming boshga (1,6 % ga ko'p) yetdi.

#### **2025 yilning 1 aprel holatiga xo'jaliklar toifalari bo'yicha chorva mollari va parrandalar bosh soni**

	<b>Ming bosh</b>	<b>O'sish sur'ati, % da</b>
<b>Yirik shoxli qoramollar</b>	<b>1 064,5</b>	<b>101,9</b>
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	68,6	104,9
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	975,9	101,5
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	20,0	111,1
<b>shundan sigirlar</b>	<b>383,5</b>	<b>101,9</b>
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	26,1	110,1
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	351,9	101,2
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	5,5	117,0
<b>Qo'y va echkilar</b>	<b>2 625,9</b>	<b>102,0</b>
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	521,2	104,2
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	2 024,7	101,2
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	80,0	108,5
<b>Otlar</b>	<b>16,9</b>	<b>103,0</b>
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	5,0	108,1
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	11,2	99,8
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	0,7	123,8
<b>Parrandalar</b>	<b>5 493,5</b>	<b>101,6</b>
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	562,4	74,2
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	2 983,9	101,9
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	1 947,2	113,0



2025 yilning 1 aprel holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 6,4 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 91,7 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 1,9 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda sigirlarning umumiylaridan 6,8 % i fermer xo'jaliklariga, 91,8 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 1,4 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, shuningdek, qo'y va echkilarning umumiylaridan 19,9 % i fermer xo'jaliklariga, 77,1 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 3,0 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, parrandalar umumiylaridan 10,2 % i fermer xo'jaliklariga, 54,3 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 35,5 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

**2025 yilning 1 aprel holatiga hududlar kesimida  
chorva mollari va parrandalar bosh soni**

	<b>Yirik shoxli qoramollar</b>	<b>Qo'y va echkilar</b>	<b>Parrandalar</b>
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>1 064,5</b>	<b>2 625,9</b>	<b>5 493,5</b>
Termiz shahri	5,9	10,4	45,5
Oltinsoy tumani	52,3	105,1	188,4
Angor tumani	46,5	85,0	303,3
Bandixon tumani	30,7	57,6	87,9
Boysun tumani	53,3	406,9	252,4
Muzrabot tumani	62,0	76,3	417,8
Denov tumani	190,8	230,0	849,8
Jarqo'rg'on tumani	87,4	254,8	683,6
Qumqo'rg'on tumani	107,8	296,0	429,0
Qiziriq tumani	43,3	52,9	118,9
Sariosiyo tumani	83,4	263,3	477,7
Termiz tumani	46,3	111,6	572,7
Uzun tumani	79,6	176,2	325,7
Sherobod tumani	81,0	321,7	307,1
Sho'rchi tumani	94,2	178,1	433,7



## V. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

**Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarish hajmi** – sohada o'z iste'moli va sotish uchun yaratilgan mahsulot va xizmatlarning umumiyligi. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi dehqonchilik va chorvachilik mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi, ovchilik xo'jaligida, o'rmonchilik va yog'och tayyorlash, baliq ovlash va akvakultura sohasida yetishtirilgan mahsulot (xizmat)lari qiymati asosida shakllantiriladi.

**Qishloq xo'jaligi mahsulotlari** – hisobot davrida fermer xo'jaliklarida, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida hamda qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda yetishtirilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining jami qiymatini belgilab, qishloq xo'jaligida mahsulot yetishtirishning umumiyligi hajmini ifodalaydi.

**Fermer xo'jaligi** – ijara ga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyektidir.

**Dehqon xo'jaligi** – meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish yoki ijara (ikkilamchi ijara) huquqi asosida dehqon xo'jaligi boshlig'iga berilgan yer uchastkasida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishni va realizatsiya qilishni dehqon xo'jaligi a'zolarining mehnati asosida amalga oshiruvchi xo'jalikdir.

**Tomorqa xo'jaligi** – shaxsiy tomorqa yer uchastkalarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ham erkin savdo uchun, ham oila ehtiyojlari uchun yetishtirish (qayta ishslash) bilan bog'liq mehnat faoliyatidir.

**Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar** – qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga xizmat qiluvchi, xo'jalik yuritish jarayonida yerga hamda boshqa ishlab chiqarish mulklariga egalik qiluvchi yuridik shaxs huquqiga ega xo'jalik yurituvchi subyekt hisoblanadi.

**Mollar bosh soni** – xo'jalik toifalari bo'yicha barcha yosh guruhlari dagi asosiy turdag'i chorva mollarini o'z ichiga oladi (yirik shoxli qoramollar, shu jumladan sigirlar, qo'y va echkilar, cho'chqalar va h.k.)

**Go'sht yetishtirish** – so'yish uchun sotilgan hamda o'z xo'jaligida so'yilgan barcha turdag'i qishloq xo'jaligi hayvonlari va parrandalarning tirik vaznni o'z ichiga oladi.

**Sut yetishtirish** – yosh mollarga ichirish uchun sog'ib olingan sut va og'iz sutini qo'shgan holda, haqiqatda sog'ib olingan sigir, echki, qo'y, biya va tuyu sutlari bilan aniqlanadi. Buzoqlar emgan sut yalpi sog'ib olishga kiritilmaydi.

**Tuxum yetishtirish** – barcha turdag'i parrandalardan olingan hamda kurk tovuqlar bilan va inkubatorda jo'ja ochish uchun sarflangan tuxumlar miqdorini o'z ichiga oladi.

### Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/qishloq-xo-jaligi-va-ekologiya/685-qishloq-o-rmon-va-baliqchilik-xo-jaligi-mahsulot-xizmat-lari-yalpi-ishlab-chiqarishini-hisoblash-bo-yicha-uslubiy-nizom-2>

---

### Tayyorlash uchun mas'ul:

Qishloq xo'jaligi va atrof-muhit  
statistikasi bo'limi

55 451-80-00 (7610)